

**"TEMURBEKLAR MAK TABI" XARBIY-AKADEMİK LITSEYLARI O'QUVCHILARINI HARBUY-
VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASH, HARBIY OILIY TA'LIM MUASSASALARIGA
PSIXOLOGIK TAYYORLASH METODIKALARI**

Rashidov X. U.

"Temurbeklar Maktabi" Harbiy-Akademik Litseyi
O'zbekiston Respublikasi

Karimov X. X.

"Temurbeklar Maktabi" Harbiy-Akademik Litseyi
O'zbekiston Respublikasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada "Temurbeklar maktabi" harbiy-akademik litseylarida ma'naviy – ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarini takomillashtirish borasida harbiy-akademik litsey o'quvchilarining ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, uning asosiy tamoyillari, harbiy-akademik litseyni tamomlagach Respublika Oliy Harbiy bilim yurtlarida ma'naviy-ma'rifiy tarbiya jarayonining vazifalari va uning yechimlari taxlil etilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviy-ma'rifiy tarbiya, Harbiy-vatanparvarlik, G'oyaviy targ'ibot ishlari, Ma'naviy-psixologik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoev, "Ma'lumki, tarixda xalqimiz orasidan ko'plab buyuk sarkardalar yetishib chiqqan. Ana shunday mard va fidoyi ajdodlarimizning harbiy sohadagi boy merosi, mardlik va jasurlik fazilatlari yoshlarimiz uchun ibrat maktabi bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, Sohibqiron Amir Temur bobomizdek – u zot bironta jangda mag'lub bo'lman – yengilmas sarkarda va davlat arbobi jahon tarixida kamdan-kam topiladi. O'z yaqinlari, zamondoshlari bu ulug' siyemoni Temurbek deb atagan ekanlar", - deya ta'kidlab, hozirda yurtimizda yoshlarga harbiy ta'limgartarbiya beradigan o'quvchilar maktablariga "Temurbeklar maktabi" deb nom berilishini taklif etgan edilar.

Ayniqsa, yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta'limgartarbiy ishlarga mamlakatimiz fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldag'i № 140-son "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi Qarorining qabul qilinishi bu boradagi eng muhim qadamlardan biri bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Davlat Xavfsizlik Xizmati, Ichki Ishlar Vazirligi, Milliy gvardiyasi, Favqulotda Vaziyatlar "**Temurbeklar maktabi**" harbiy-akademik litseylari tashkil etilib. Mazkur litseylarda ta'limgartotgan o'quvchilarga yo'nalishi bo'yicha fanlardan chuqurlashtirilgan holda saboq beriladi, ularning intellectual saloxiyati, harbiy-vatanparvarlik va jangovar tayyorgarligini muttazam oshirib borishda buyuk Sohibqiron Amir Temurning harbiy boshqaruvini va vatanparvarlik jasoratini milliy istiqlol mafkurasi talablaridan kelib chiqqan holda o'rghanish eng muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy hamta tarbiyaviy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilingan konsepsiyalarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, shuningdek, Vatanga xizmat qilish, ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalash bo'yicha keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda o'z xalqi va Vatanni himoya qilish va ushbu sharaflı vazifani zimmasiga ishonch bilan ola biladigan, harbiy-siyosiy vaziyatni chuqur tahlil qilib, jang sharoitida o'zini yo'qotmay, murakkab vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qiladigan jismoniy va psixologik tayyorgarlikka ega harbiy kadrlarni tayyorlashning o'ziga xos tizimi yaratildi.

Shu jumladan, prinsipial yangi «**Temurbeklar maktabi**» harbiy-akademik litseylarini tashkil qilish va ularning o'quv-tarbiyaviy jarayonini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturi («yo'l xaritasi»)ning "Harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-ma'rifiy tarbiya jarayonini takomillashtirish" o'quvchilarda

axloqiy-psixologik barqarorlik va kasbiy vazifalarni bajarishga shay turishni shakllantirish maqsadida ularni psixologik qo'llab-quvvatlashni tashkillashtirish tadbirlariga alohida ahamiyat berilgan. Ushbu tadbirlarning amalga oshilishi o'quvchilarning kelajakda harbiy xizmatlarining ma'naviy-psixologik ta'minotiga alohida urg'u berilgan.

Harbiy xizmatchilarni ma'naviy-psixologik ta'minoti deyilganda harbiy xizmatchilarni ma'naviy va jangovar ruhda saqlashga yo'naltirilgan tadbirlar tizimi tushuniladi. Ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish, saqlash, tarqatish, shuningdek kelajak avlodlarga yetkazish jarayonida vujudga keladigan munosabatlarni ta'minlashda psixologlarning faoliyati muhimdir. Ma'naviy-psixologik ta'minot harbiy (jangovar) harakatlarning muhim qismi hisoblanadi. Ma'naviy-psixologik tayyorgarlik tizimining asosiy tadbirlari bu g'oyaviy targ'ibot ishlari va harbiylarni psixologik tayyorlash hisoblanadi.

Kompleks tadbirlarni o'z ichiga qamrab olgan ma'naviy-psixologik ta'minot muammosining yechimini ikki ibora bilan izohlash mumkin: ma'naviy-psixologik holat va ma'naviy-psixologik tayyorgarlik.

Ma'naviy-psixologik holat – individning harbiy jamoadagi individual psixologik jarayonlari, psixologik (shaxslararo) munosabatlardagi yo'nalgaligi va dinamikasini tavsiflab beruvchi xolat hisoblanadi. Harbiy kuchlarda shaxsiy tarkibning ma'naviy-psixologik holati harbiy xizmatchilarning harbiy burchiga, harbiy majburiyatlarini faol va ma'suliyatli tarzda bajarishiga ko'ra baholanadi.

Ma'naviy-psixologik tayyorgarlik, tinchlik va urush davrida jangovar harakatlarni va qo'yilgan harbiy vazifalarni samarali bajarishga yo'naltirilgan harbiy xizmatchilar va xodimlar bilan olib boriladigan ma'naviy va psixologik tayyorgarlikni o'z ichiga oladigan tadbirlar tizimidan iboratdir

Tinglovchilarning ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik jarayoni o'z ichiga quyidagi vazifalarni oladi:

Vatanga, harbiy burchga, qasamyodga sadoqat, vatanparvarlik, harbiy kasbga muhabbat kabi ma'naviy-ahloqiy sifatlarni tinglovchilarda rivojlantirish yordamida professional faoliyatga xos ma'naviy qobiliyatlarni shakllantirish.

Psixik jarayonlar, xususiyatlar, xolatlarni rivojlantirish orqali professional faoliyatga tayyorlash.

Tinglovchilarni harbiy-professional faoliyatini samarali olib borishga ko'maklashuvchi ma'naviy-psixologik motivatsiyalash

Yuqoridaqı vazifalarni amalga oshirish orqali tinglovchilarning ma'naviy-psixologik kasbiy sifatlarini shakllantirish mumkin bo'ladi. Ular kelib chiqishi va predmetiga ko'ra katta ikki guruhga bo'linadi.

Birinchi guruh o'z ichiga umumiy ijtimoiy ko'rsatkichlar (ruhiy soha ko'rsatkichlari)ni qamrab olgan sifatlar majmuasidan iborat bo'ladi. U o'z o'rnidagi yana ikki kichik guruhlarga bo'linadi. Birinchi kichik guruh (tayanch yoki barqaror ko'rsatkichlar): nazariy va ma'naviy yetuklik, tarbiyalanganlik, milliy ruhiy va ma'naviy qadriyatlar asosida harbiy sifatlarning birlashganligi kabi sifatlarni o'z ichiga oladi. Ikkinci kichik guruh (vaziyatlari yoki dinamik ko'rsatkichlar): harbiylarning ichki va xalqaro hayot tarziga, harbiy-siyosiy davlat qarorlariga bo'lgan munosabati, konstitutsiyaviy burchlarini bajarishi, harbiy qasamyodga sodiqligi; dushman ustidan g'alaba qozonishga ishonch, o'z xalqi manfaatlarini ximoya qilish kabi sifatlarni o'z ichiga oladi.

Ikkinci guruh harbiy-maxsus ko'rsatkichlar (yoki amaliy-predmetli sohadagi ko'rsatkichlar): jangovar va boshqa vazifalarni yechish unumdonligi, qo'shining jangovor va boshqa harbiy-professional tayyorgarlik darajasi, harbiy tartib intizomni, harbiy texnika va qurollar holatini tartiblashtirish kabi xususiyatlarni o'z ichiga oladi.

Ma'naviy-psixologik tayyorgarlikning yetakchi tarkibiy qismini siyosiy, ma'naviy-psixologik va harbiy-professional komponentlar tashkil etadi. Ularning har biriga alohida to'xtalib o'tamiz.

Harbiy xizmatchilarning ma'naviy-psixologik tayyorgarlik ko'rshida uning siyosiy bilimdonligini rivojlantirishga katta ahamiyat beriladi. Ma'naviy-psixologik tayyorgarlikning siyosiy komponenti o'z ichiga harbiy xizmatchilarning siyosiy tayyorgarligini, vatanni ximoya qilish va mamlakatning harbiy-siyosiy rahbarlarining talablarini so'zsiz bajarish kabi xususiyatlarni qamrab oladi.

Ma'naviy-psixologik komponentga to'xtaladigan bo'lsak, ushbu komponent harbiylarni u yoki bu ma'naviy (ahloqiy) qadriyatlarni hisobga olgan holda harakat qilishga o'rgatish tushuniladi. Bu murakkab jarayon hisoblanib, uning natijasida yangi bilim, ko'nikma va malakalarini egallashi bilan birga mavjud qadriyatlarga xos bilim, ko'nikma, malakalari to'ldiriladi va shaxsning bu sohadagi qobiliyatlari rivojlantiriladi va yuksaltiriladi.

Harbiy-professional komponent orqali shaxsiy tarkibni harbiy professional tayyorgarligi sifatida harbiy mahoratini oshirish va aniq vazifalarni samarali bajarishga o'rgatish nazarda tutiladi.

Tinglovchilar ma'naviy-psixologik tayyorgarligining yetakchi tarkibiy qismi bo'lgan, siyosiy, ma'naviy-psixologik va harbiy-professional komponentlarni tarkib toptirish ulardagi yuksak his-tuyg'ular (mas'uliyat, burch, javobgarlik, vatanparvarlik, sadoqat va hokazo) shaklantirib, murakkab xizmat faoliyatida uchrashi mumkin bo'lgan stress holatida xatti-harakat buzilishining oldini olishda katta rol o'yaydi.

Yuksak hislar ongli harakatlarni bajarishning ob'ektiv sharoitlari, yo'nalishlari, mazmuni bilan uyg'unlashgan shaxs emotsiyal holatining barqaror, murakkab tarkibida paydo bo'ladi va kechadi. Ko'plab kechirilayotgan emotsiyalarda, affektlarda, kayfiyatlarda seziladigan umumlashma hislar yuksak hislar deb ataladi. Ular o'z tarkibiga sodda tuzilgan hislarni qamrab oladi, lekin oddiy hislar yig'indisidan iborat emas, chunki yuksak hislar mazmuni, sifati, shakli bilan ajralib turadi.

Shaxsda topshiriqni bajarish bilan bog'liq javobgarlik hissi har xil ma'noda kechadi; 1) tashvishlanish emotsiyasi (bir tomonidan, xursandlik, ikkinchi tomonidan, esa qo'rqish hissi) sifatida; 2) o'z kuchiga, g'ayratiga, iftixoriga ishonch emotsiyasi tariqasida; 3) vazifaga jiddiy qaramaydigan tengdoshlardan g'azablanish emotsiyasi sifatida; 4) shart-sharoitlarni hisobga olishga befarq qarashi sifatida va hokazo. Psixologiya fanida yuksak hislar quyidagi turlarga ajratiladi: 1) mehnat faoliyati davomida kechadigan hislar – praksik hislar; 2) intellektual hislar; 3) ahloqiy hislar; 4) estetik hislar.

T.V. Yegorovich o'zining ilmiy izlanishlar jarayonida eng zamonaviy quollar harbiy xizmatchilarning ma'naviy - ruxiy tayyorgarligining sustligini ta'minlay olmaydi. Jismoniy va ma'namiy ahvoli yetarli emasligi sababli shaxsiy tarkib harbiy xarakatlarda faol qatnasha olmasa, jangovor operatsiyalarning aniq tashkil etilishi samarasiz bo'ladi deb takidlab o'tgan.

Maxsus harbiy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik ishlarini to'g'ri yo'lga qo'yilishi yuqorida keltirilgan yuksak hislarni tinglovchilarda shakllantirishga xizmat qilib, mamlakat ravnaqi uchun fidokorona faoliyat ko'rsatishlari muhim omillardan biri hisoblanadi. Bundan tashqari Maxsus harbiy ta'lim muassasalarida tinglovchilarning keyingi xizmat faoliyatlarida, jumladan muhim strategik ob'ektlarni qo'riqlash, antiterroristik operatsiyalarda ishtirok etish, jamoat tartibini saqlash, jamoat xavfsizligini ta'minlash, favqulodda holatlar oqibatlarini bartaraf etish kabi vazifalarni amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan kutilmagan nizoli vaziyatlarda yuzaga keladigan sters xolatlari, affekt xolatlari, asabiy zo'riqish, nizoli vaziyatlarda o'zini yo'qotish, xayajonlanish, qo'rquv, o'ziga ishonchszilik xolatlarni oldini olish, bunday xolatlarga duch kelganda tinglovchilar o'zlarini yo'qatmasliklari, muammoli vaziyatlarni ijobiy hal qilishlari, aniq va tezkor qaror qabul qilish uchun Maxsus harbiy ta'lim muassasalarida ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik ishlariga jiddiy qaralib, jangovor va jismoniy tayyorgarlik ishlarini, ma'naviy-ruhiy tayyorgarlik ishlari bilan hamnafas olib borilishi, joylardagi Maxsus harbiy ta'lim muassasalarida o'qitiladigan "Kasbiy ruxiy tayyorgarlik" o'quv mashg'ulotlari o'quv soatlarini imkon darajasida ko'paytirish, haftaning ma'lum bir kunini tarbiyachi va psixologlar kuni deb belgilash, haftaning belgilangan kunida tarbiyaviy va mafkuraviy ishlar bo'yicha ma'sullar tinglovchilarni harbiy-vatanparvarlik ruxida tarbiyalashga yanada chuqurroq yondashsa, psixologlar tinglovchilarga yuqorida ko'rsatilgan xolatlar bo'yicha tizimli ravishda psixologik treninglarni tashkillashtirilsa, ushbu treninglarga malakali mutaxassislar jalb qilinib borilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. T.1. –T.: "O'zbekiston", 2017. – B.534.
2. Саипова, М. В. (2022). Научно практический опыт изучения детско родительских отношений в психологии. *ILMIY AXBOROTLARI*, 1(6), 257-258.
3. Kadirova, Z. Z. (2021). Some comments on the interpretation and contrast aspects of the terms "Paraphrase" and "Periphrase". *Theoretical & Applied Science*, (6), 486-489.
4. Kadirova, Z. Z. (2021). Periphrases in the prose works of Alisher Navoi. *Theoretical & Applied Science*, (6), 574-579.
5. Kadyrova, Z. (2021). The lexical units in the formation of periphrasis (on the example of periphrases in the prose works of Alisher Navoi). *Журнал филологических исследований*, 6(2), 17-23.
6. Kadirova, Z. Z. (2021). Nominativ features of the periphrases. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(2), 220-225.
7. Bazarova, E., & Kadirova, Z. (2020). Practical knowledge of the stone names in linguistics. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 2(1), 178-181.
8. Kadirova, Z. Z. (2019). Principles of differentiation of periphrasal and euphemic units. *Scientific Bulletin of Namangan State University*, 1(10), 269-273.

9. Kadirova, Z. Z. (2021). Alisher Navoiyning nasriy asarlarida insonga xos xususiyatlarni ifodalovchi perifrazalar. Ilm sarchashmali, 2(2), 176-178.
10. Qodirova, Z. Z. (2019). Perifraza obrazli idroq mahsuli. Ilm sarchashmali, 1(1), 54-57.
11. Saipova, M. V., Ergasheva, G. (2022). Maktabgacha ta'limda psixologik xizmatining ustuvor vazifalari. O'zbekiston ilmiy-amaliy konferensiya, 1(1), 15-20.
12. Saipova, M. V. (2022). Migrantlarning o'smir yoshdagi farzandlarida ijtimoiy moslashuv muammosi. Bola va zamon, 1(2), 12-13.
13. Саипова, М. В. (2022). Социально-психологические детерминанты социализации детей трудовых мигрантов. Вестник интегративной психологии, 2(24), 330-333.
14. Саипова, М. В. (2021). Усмирлик даврига хос аддиктив хулк- автор профилактикаси. Республика илмий амалий конференцияси, 1(1), 121-123.
15. Anarbekova, G. A. (2021). Og'zaki nutqni rivojlantirish tamoyillari. Ekonomika i sotsium, 5(84), 55-75.
16. Артиков, А. А. (2022). Футбол спорт турида дарвозага зарба бериш аниқлигини баҳолаш услубияти. Fan-Sportga, (1), 48-51.
17. Artikov, A. (2020). About some methodological problems in teaching special sciences. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(7), 379-384.
18. Артиков, А. (2020). Осиё кубоги-2019 ўйинларидағи ўзбекистон терма жамоасининг дарвозага йўлланган зарбалар аниқлиги бўйича таҳлил. Фан-Спортга, (7), 16-17.
19. Артиков, А. (2020). Футболчиларнинг техник усуллари аниқлигини такомиллаштиришга йўналтирилган маҳсус машқлардан фойдаланиш самарадорлигининг таҳлили. Фан-Спортга, (3), 16-18.
20. Артиков, А. А. (2020). Тўп узатишлар ва дарвозага зарбалар аниқлигининг таҳлили. Fan-Sportga, (4), 35-37.
21. Артиков, А. (2019). Офк кубоги ўйинларида ўзбекистон терма жамоаси футболчиларининг техник усуллари аниқлигини таҳлил қилиш натижалари. Фан-Спортга, (3), 42-45.
22. Saipova, M. V. (2021). Boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan qiziqishlarini shakillantirishning psixologik xususiyatlari. Uzluksiz ta'lif, 1(3), 83-86.
23. Mehri, S. (2022). The problem of social adaptation of migrant adolescent children. International journal of social science & interdisciplinary research ISSN: 2277-3630 Impact factor: 7.429, 11(05), 108-113.